



EOC
EUROASIAN
ONLINE
CONFERENCES

GERMANY

CONFERENCE

**INTERNATIONAL CONFERENCE ON
SCIENCE, ENGINEERING AND
TECHNOLOGY**



Google Scholar

zenodo

OpenAIRE

doi digital object
identifier

eoconf.com - from 2024

**“UYAT” KONSEPTINI IFODA ETUVCHI KINETIK BIRLIKLAR**

Maxmudova Muniraxon Badriddin qizi
Andijon davlat universiteti tayanch doktoranti

Annotatsiya: Maqolada “Uyat” konseptini ifoda etuvchi noverbal vositalar tahlil qilinadi. Noverbal vositalar nutqning mazmuniga yordam beradi, uni to‘ldiradi yoki almashtiradi, shuningdek, emotsiyalarni ifodalaydi. Qo‘l, bosh va yuz harakatlari kabi kinetik vositalar orqali uyat hissining ifodalanishini ko‘rib chiqiladi. “Uyat” konsepti kontekstga bog‘liq holda turli semantik va emotsional xususiyatlarga ega ekani ko‘rsatiladi. Maqola o‘tkazilgan kuzatuvlar asosida uyat konseptining o‘zbek xalq madaniyatidagi o‘ziga xos xususiyatlarini namoyon etadi.

Kalit so‘zlar: “uyat” konsepti, noverbal kommunikatsiya, kinetik vositalar, emotsiyalar, o‘zbek madaniyati, paralingvistika, harakat ifodalari, verbal va noverbal integratsiya.

Аннотация: В статье анализируются невербальные средства, выражающие концепт «стыд». Невербальные средства помогают дополнить, заменить содержание речи, а также выражают эмоции. Рассматривается выражение чувства стыда через кинетические средства, такие как движения рук, головы и лица. Показано, что концепт «стыда» в зависимости от контекста обладает различными семантическими и эмоциональными характеристиками. На основе проведенных наблюдений выявлены особенности выражения концепта «стыда» в культуре узбекского народа.

Ключевые слова: концепт «стыд», невербальная коммуникация, кинетические средства, эмоции, узбекская культура, паралингвистика, выражение движений, интеграция вербальных и невербальных средств.

Annotation: The article analyzes nonverbal means expressing the concept of “shame”. Nonverbal means help complement, replace speech content, and express emotions. The expression of the feeling of shame through kinetic means, such as hand, head, and facial movements, is examined. It is shown that the concept of “shame” has various semantic and emotional characteristics depending on the context. Based on the observations conducted, the article reveals the unique features of expressing the concept of “shame” in Uzbek culture.

Keywords: concept of “shame”, nonverbal communication, kinetic means, emotions, Uzbek culture, paralinguistics, movement expressions, verbal and nonverbal integration.

Noverbal vositalar kommunikatsiya jarayonida nutqni to‘ldirish, ba‘zan uning o‘rnini bosish, kommunikantlarning emotsional holatini aks ettirish uchun xizmat qiladi [1, B. 36]. Noverbal vositalar nafaqat verbal axborotning



mazmunini to'ldiradi, balki so'zlovchining yoshi, xarakteri va boshqa jihatlari haqida ma'lumot beruvchi vosita ham sanaladi.

Insonning noverbal kommunikativ sistemasi tilga bo'ysundirilgan ikkilamchi sistema hisoblanadi, ularning turlicha kelib chiqishiga qaramasdan, noverbal vositalar shunchaki tilga yondosh holda qo'llaniluvchi vositalardir.

Kinetik noverbal vositalardan qo'l harakati turli xil ma'nolarni ifodalashi va vazifasi jihatidan keng qo'llaniladi. T.M.Nikolayeva "inson yuz va ko'zlarining hissiy ta'sirchanligi keng ekanligi aniq bo'lsa-da, qo'l harakatiga qaraganda funksional jihatdan chegaralangandir" – deydi.

Uyat konsepti subyektiv modallikning baho, shuningdek, emotsiya ifodalovchi qismiga kiradi va turli verbal va noverbal vositalar yordamida ifodalanadi. Ular tarkibida quyidagilar ajratiladi: tushunchaga oid qism, emotsional element, ma'lum madaniyatga doir bahoning turli ko'rinishlari, assotsiatsiyalari, obrazlari [2, B. 41]. Uyat konsepti o'z atrofiga turli elementlarni birlashtiradi. Quyida ularning ayrimlariga to'xtalib o'tamiz.

Qo'l fikr ifodalash jarayonining turli o'rinlarida ishlatilishi mumkin: u fikrni isbotlaydi, qo'shimcha mazmun beradi, ta'sirchanlikni oshiradi, his-hayajon ifodalaydi, izohlaydi, tasvirlaydi. Qo'lini ko'ksiga qovushtirmoq kinemasi ham emotsiya ifodalaydi va uyat konseptini ham yuzaga keltiruvchi birlik hisoblanadi:

Ostonada qizil gardanpo'sh yopingan, yuzi murdaday oq, lekin soqoli qop-qora mirg'azab **qo'lini ko'ksiga qovushtirgancha ikki bukilib** turardi. (A.Muxtor)

Bosh inson organizmining o'ylovchi va fikrlovchi aqli joylashgan asosiy tana a'zosi sanaladi. Shunday ekan, boshning kommunikatsiya jarayonidagi o'rni muhim. Boshning turli harakatlari nutq kontekstiga bog'liq holda bo'ladi va u o'z ma'no qirralarini shu jarayondagina namoyon etadi. Boshning qanday pozitsiyada turganligi inson holati haqida juda ham ko'p ma'lumot uzatadi. Boshning egikligi uning uyalayotganidan darak beradi. Boshini egmoq kinemasi ostida birgina harakat emas, balki ma'lum bir emotsiyani – uyatni ifodalovchi ma'no ham mavjud:

U uyalganini sezdirgisi kelmay, **boshini egdi-yu, o'z tizzalariga ko'z tikdi.** (P.Qodirov)

Yuzni berkitmoq kinemasining mazmuni ostida ham uyat konsepti bilan bog'liq ma'noni anglashimiz mumkin. Ammo ushbu ma'no ham yuqoridagi birliklar singari ma'lum kontekstda yuzaga kelishi bilan xarakterlanuvchi xususiyatga egadir:

Yuzlarimni ushlab-ushlab kuldim, **yuzlarimni berkitib-berkitib** kuldim. (T.Murod)

Yerga qaramoq paralingvistik birligi va qizarmoq psixoparalingvistik vositalari ham uyat konsepti atrofiga boshqa ma'no-mazmunlar bilan birga birlashadi:



Uyalib **yerga qaradi-yu**, lekin **qizarib ketgani**, oftobda kuyganidan yaltirab qolgan yuzlarida bilinmadi. (M.Tilolova)

Uyat konseptini ifodalovchi paralingvistik vositalar har doim ham u bilan bir paradigmaga uyushmaydi. Ya'ni, noverbal holatda uyat hissining yuzaga chiqishi nutq momentida sodir etilayotgan inson xatti-harakati, holati, o'zining tutishi kabilar bilan bog'liq bo'ladi. Ular masofa, boshni egish, ko'zni olib qochish, harakatning tezligi, ovozning baland-pastligi, yuzini berkitish singari turli vaziyatlarda yuzaga chiqadi.

Masalan, Oyisha begim azbaroyi tortinganidan dasturxonning Boburdan eng uzoq chetiga o'tirdi (P.Qodirov). Ushbu misolda masofa uyat konseptini ifodalashda xizmat qilgan.

Uyatning eng yuqori ko'rinishi tezlik bilan berkinib olish hissini uyg'otadi. Biz badanimizni butunlay burib olamiz, ayniqsa, yuzimizni ko'rsatmaslikka harakat qilamiz [3, B. 301]. Qiz go'yo endi o'ziga keldi, «lip» etib, boshini devor ortiga oldi-yu, ko'zdan g'oyib bo'ldi (P.Qodirov). Qizning tezlik bilan o'zini devor ortiga olishida ham unda uyat hissining uyg'onganligi haqida axborot uzatiladi. Yozuvchi bu harakat orqali o'zbek millati qizlari uchun xos bo'lgan hayo hissini ifodalab bergan.

Shuningdek, boshni yelkalar orasiga qistirib olish, qo'li bilan yuzini to'sib olish ham uyat konseptini ifodalovchi noverbal vosita vazifasini bajaradi: Bola boshini yelkalari ichiga oldi. Yuzini loy kaftlari bilan pana qildi (T.Murod).

Aksar hollarda uyat hissi bilan bog'liq holatlar inson ko'zida aks etadi. U aybdor ekanligidan, noqulay vaziyatga tushib qolganligidan ko'pincha suhbatdoshi ko'zlaridan nigohini, o'zini olib qochishga tirishadi, ko'zini yerdan uzmaydi: Bobur onasining so'zini yerda qoldirganidan xijolat bo'lib, Qutlug' Nigor xonimning ko'ziga tashlanmaslikka tirishardi (P.Qodirov). Polvon achchiqlanmadi, qaytaga — xo'rliги keldi, xotini o'ragan bir so'mlik gardi ro'mol-u uning kir unnagan ko'ylagi sabab bo'ldimi yoki qo'lidagi cho'ltoq supurgimi, ishqilib, unga betlab qaray olmadi, uyaldi, o'zini nomard, noinsof sezdi (M. Muhammad Do'st). Qosimbek boyadan beri ko'zini Boburning yalang oyoqlaridan olib qochmoqda edi (P.Qodirov).

Ortga chekinmoq fe'li semasida ham o'ng'aysizlik sememasi mavjuddir. Ushbu harakatni bajarish orqali adresant adresatga noqulay vaziyatda ekanligi haqida axborot beradi:

– Amirzodam, men sizni tanimabmen! – Yor Husaynbek qo'lida qilichi bilan bir qadam orqaga chekindi (P.Qodirov).

Paralingvistik vositalar barcha millat vakillarida ularning bolaligidanoq shakllanib boradi va kundalik xatti-harakatlariga aylanadi. Uyat va xushomad konsepti inson shaxsi bilan bevosita bog'liq bo'lganligi tufayli uning noverbal tarzda ifodalanishi ham o'zbek xalqida o'ziga xos, individualdir.

Emotsiya insonda chaqaloqlik davridanoq yuzaga keladi, uni noverbal tarzda ifodalash esa asta-sekinlik bilan hayot saboqlari asosida o'rganib



boriladi. Xulosa qilib aytadigan bo'lsak, emotsiya, xususan, uyat konseptlarini ifodalash faqatgina verbal vositalar bilan emas, noverbal vositalar bilan ham yuzaga kelar ekan.

Adabiyotlar:

1. Maxsudova M.A. Muloqot psixologiyasi. – T.: Turon-Iqbol, 2006.
2. Степанов Ю.С. Концепты. Словарь русской культуры. Опыт исследования. – М.: Школа “Языки русской культуры”, 1997.
3. Дарвин Ч. О выражении эмоций. – Санкт-Петербург: Питер, 2001.

